



**AQLAN ZAIF O'QUVCHILARNING O'QISH BUZILISHLARINI BARTARAF
ETISHDA KORREKTSION RIVOJLANTIRUVCHI ISHLAR.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11170296>

Egamberdiyeva Shahnoza Akbar qizi

JDPU

maxsus pedagogika kafedrası stajyor o'qituvchisi.

Aralova Iroda Meliqo`zi qizi

JDPU

Maxsus pedagogika kafedrası o`qituvchisi

ANNOTATSIYA

Aqli zaif bolalarning tengdoshlari va kattalar bilan samarali muomalaga kirishishi, Maxsus sharoitda va maxsus usullar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari orqali aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatidagi kamchiliklari bartaraf etiladi, psixofiziologik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklari korrektsiyalanadi, ular o'qish va yozish malakalarini egallab oladi.

Kalit so'zlar

Fonetik, Fonematik, ahloqiy, og'zaki nutqni shakllantirish, ijtimoiy muloqot, ijtimoiy faoliyat, nutq harakat analizatori.

ANNOTATION

Effective interaction of children with mental retardation with their peers and adults, through educational work carried out in special conditions and with special methods, deficiencies in cognitive activity of children with disabilities in mental development are eliminated, deficiencies in psychophysiological and physical development are corrected, they are able to study and acquires writing skills.

Keywords

Phonetic, Phonemic, moral, oral speech formation, social communication, social activity, speech movement analyzer.

АННОТАЦИЯ

Эффективное взаимодействие детей с задержкой психического развития со сверстниками и взрослыми, посредством воспитательной работы, проводимой в особых условиях и специальными методами, устраняют недостатки познавательной деятельности детей с отклонениями в умственном развитии, корректируют недостатки психофизиологического и физического развития, способны учиться и приобретают навыки письма



Ключевые слова

Фонетика, фонематика, нравственность, формирование устной речи, социальное общение, социальная активность, анализатор речевого движения.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek yozma nutq ko'nikmalarini samarali o'zlashtirish malum funksiyalar yig'indisi(funksional negiz)ni yetarli darajada shakllanganligini taqazo etadi. Ko'pincha meyorda rivojlanuvchi o'quvchi yozma nutq va xususan, o'qishni egallashga ruhan va intellektual jihatdan tayyor bo'ladi. Bunday o'quvchining fonematik eshituvi va ko'ruv idroki yaxshi rivojlangan, og'zaki nutqi yetarli darajada shakllangan holda bo'ladi U atrof olamdagi predmet va hodisalarni idrok etish darajasidagi analiz va sintez operatsiyalari amalga oshira oladi. o'quvchining sensomotor va psixik tomonlarini yozma nutqni egallashga tayyorligi o'qish ko'nikmalari asosidagi operatsiyalarni tez va oson egallash uchun sharoit yaratadi.

Odatda, nutqi meyorda rivojlangan umumta'lim maktabi birinchi sinf o'quvchilari hech qanday qiyinchiliksiz harflab o'qishdan bo'g'inlab o'qishga o'tishadi, bu esa o'z navbatda o'qish malakalarini jadal shakllanishiga va so'z ma'nosini tushunishga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga o'quvchilarda bu bosqichda matn mazmunidan kelib chiqqan holda o'qish jarayonida taxminlar yuzaga keltirish shakllana boshlaydi.

Ta'lim olish davomida yuzaga kelgan nutq-harakat namunalari u yoki bu so'z bilan assotsiatsiyalanadi natijada, o'quvchilar bo'g'inni o'qib, butun so'zni anglab, talaffuz qilishga harakat qilishadi. Mazmun asosida tahminlar qilish tendensiyasi o'qilgan matnni tushunishning yangi, yanada yuqori darajaga ko'tarilganidan dalolat beradi.

I.N.Sadovnikova ta'kidlashicha yozma nutqni shakllanishiga bir qator ontogenetik omillar ta'sir etadi:

- Og'zaki nutq mexanizmlarini shakllanishi, chunki yozma nutqda og'zaki nutqning tayyor mexanizmlaridan foydalaniladi;

- Fazoviy differentsiatsiyani evolyusiyasi, chunki o'qish jarayoni grafik belgilarni fazoviy ketma-ketligini tovush komplekslarini vaqtinchalik ketma-ketligiga almashtirishni o'z ichiga oladi, yozuv jarayoni esa tovushlarini vaqtinchalik amalga oshirish bosqichida ketma-ketligini grafik belgilarning fazoviy ketma-ketligiga o'zgartirishni talab etadi. o'quvchining psixik rivojlanishining sensomotor asosini ko'z va qo'l, eshitish va ovoz o'rtasida yuzaga keluvchi koordinatsiyalar tashkil etadi (A.Vallon).

Ontogenezda nutqiy funksiyalarni shakllanishi nutq tizimining barcha tomonlarining o'zaro ketma-ketligi va bir-biriga bog'liq holda amalga oshirishini



aniqlovchi ma'lum qonuniyatlar asosida yuzaga keladi. Eshituv, ko'rish va harakat analizatorlari juft-juft bo'lib tuzilgandir.

B.G.Ananyevning ta'kidlashicha, retseptorlarning juft holda mavjudligi, analizatorlarning tuzilishi va joylashuvidagi simmetriya organizmni atrof olamda faoliyat yuritishi uchun katta ahamiyatga egadir. Ma'lumki, bosh miyaning chap yarim shari tananing o'ng qismini boshqarsa, o'ng gemisfra - tananing chap qismini boshqaradi. Inson tomonidan fazoviy munosabatlarni farqlash o'z tanasini idrok etish orqali amalga oshadi. o'quvchida o'z tanasi sxemasini shakllanishi jarayoni bosh miya po'stlog'ining differentsiyalovchi ishining rivojlanishi bilan bog'liq. Ko'rish va qo'l bilan paypaslash tashqi olam predmetlararo fazoviy munosabat va belgilarni o'rganishning asosiy vositasiga aylanadi. Yetakchi qo'lni ajralib chiqishi bilan qo'llar bilan paypastlash funksional tengsizlik sharoitida amalga oshadi.

Ontogenetik rivojlanish jarayonida analizatorlar tizimi ishida funksional assimetriyani yuzaga kelishi ikkala yarim sharlarning meyoriy faolivati bo'lib, bir yarim shar dominant rolga ega bo'lganidan dalolat beradi. o'z tanasini differentsiyalash jarayoni bola 3-4 yoshga yetganda yakunlanadi. Dominant yarim sharda joylashgan bosh miya po'stlog'i nutqiy zonalarning morfologik assimetriyasi og'zaki va yozma nutq funksiyalarini amalga oshiruvchi juft analizatorlarning o'zaro faoliyati muammosini murakkablashtiradi, shu bilan birga ikkinchi signal sistemasining shartli refleks aloqalari shakllanishi yakunlanmagan birinchi signal sistemasi darajasidagi sensor-motor koordinatsiyasiga tayanadi. Nazariyada nutqiy funksiyalarning shakllanishi nutqiy tizimning barcha tomonlari (fonetik tomoni, leksik zaxirasi va grammatik tuzilmasi)ning o'zaro aloqasi va ketma-ketligini belgilab beruvchi ma'lum qonuniyatlar asosida amalga oshadi.

A.N.Gvozdev, N.X.Shvachkin, N.I.Krasnogorskiy, V.I.Beltikov kabi tadqiqotchilarning ishlari og'zaki nutq shakllanish jarayonida nutq-harakat va nutqeshituv analizatorlarning funksional aloqalarini o'rganishga bag'ishlangan. o'quvchilarda eshituv analizatorining funksiyasi nutq-harakat analizatori funksiyasiga nisbatan erta shakllanadi: tovushlar nutqda paydo bo'lishidan avval ular eshitish orqali differentsiyalangan bo'lishlari kerak. o'quvchi hayotining dastlabki oylarida tovush ixtiyorsiz artikulyatsiya, artikulyatsion apparatning harakatlari asosida yuzaga keladi.

Keyinchalik tovush va artikulyatsiya o'rtasidagi aloqa o'zgarib, artikulyatsiya ixtiyoriy ravishda yuzaga kelib, tovush ifodasiga mos bo'ladi. o'quvchi uchun talaffuz obrazlari sifatida atrofdegilar nutqi xizmat qiladi, lekin nutqiy rivojlanishning ma'lum bosqichida o'quvchi ba'zi tovushlarning artikulyatsiyasini amalga oshira olmaydi. Bunda u mazkur tovushni artikulyatsion jihatdan yaqin bo'lgan va o'zi talaffuz etadigan tovush bilan almashtirishga majbur bo'ladi.



Ko'pincha bu almashtirish eshityotgan obrazdan ancha farq qiladi, bu esa o'z navbatida mukammal artikulyatsion yo'lni izlash uchun sabab bo'lib xizmat qiladi.

Bu jarayonda eshituv idroki yetakchi rolga ega bo'lsa-da, izlanuvchi tovushga etishish yo'li nutq-harakat analizatorini rivojlantirishga imkon yaratadi. Nutqning fonematik tomoni shakllanib bo'lgunga qadar eshituv analizatori funksional mustaqillikka ega bo'ladi. Nutq tovushlarini farqlash va talaffuz etishi operatsiyalari murakkablikning bir pog'onasiga qo'yiladilar.

R.YE.Levinaning aytishicha, og'zaki nutqni shakllanishi tovushlarni umumlashtirish va morfologik tahlil sohasidagi uzviy ravishda to'plangan tajribani o'z ichiga oladi. Nutqiy rivojlanishning mazkur tomonlari qanchalik yaxshi ta'minlangan bo'lsa, o'quvchi yozma nutqni egallashga shu darajada tayyor bo'ladi. Nutqning barcha tomonlarini shakllanish darajasi yozma nutqni shakllanishiga katta ahamiyat kasb etadi. o'qish va yozuv aktlarida grafik belgilarni fazoviy ketma-ketligi va tovush komplekslarini vaqtinchalik ketma-ketligini o'zaro transformatsiyasi amalga oshadi. Nutqni idrok etish va ifodalashning vaqtinchalik va fazoviy tomonlarini bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

A.N.Komevning fikricha, o'qishni analitik-sintetik metod orqali o'rganishning dastlabki bosqichlarida dekodlash jarayoni bir necha operatsiyalar: harf-tovush muvofiqligini aniqlash, bo'g'inlarni qo'shib talaffuz etish va butun so'zni tovushli ifodasini vujudga keltirishni o'z ichiga oladi. Asosiy qiyinchiliklar ikkinchi va uchinchi operatsiyani amalga oshinishda kuzatilib, bunda ikkinchi operatsiyani samarali amalga oshirish uchinchi operatsiyani maqsadga muvofiq tarzda bajarishni ta'minlaydi.

T.G.Yegorova o'qish malakasini shakllanishining o'zlashtirishni to'rt bosqichga ajratadi:

A).Tovush-harf ifodasini o'zlashtirish: Bu bosqichda o'quvchilar fonema haqida tasavvurga ega bo'ladi, bo'g'in va so'zlarni tovushlarga ajratishni o'rganadilar. Og'zaki nutqdan ajratib olingan tovush uning optik belgisi - harf bilan bog'lashni boshlashadi. o'qilganni tushunish idrok jarayonidan alohida amalga oshib, so'zning ko'ruv obrazi uning ma'nosi bilan assotsiatsiyalar keltirib chiqarmaydi.

B) Bo'g'inlab o'qish: Bu bosqichda o'quvchilar tovushlarni bo'g'inlarga qo'shishda qiynalmaydilar, bo'g'inlar so'zning qismlariga aylanadi, lekin so'zni butunligicha idrok etish va tushunish orasida uzilish saqlanib qoladi.

V) o'qishning sintetik usullarini vujudga kelish bosqichi: Bu bosqichda o'quvchilar oddiy so'zlarni bo'g'inlab emas, eshituv va ko'rishga tayanch bo'lib xizmat qiluvchi - fonema va grafema asosida butunligicha taniy boshlaydi, lekin so'zlar xali optik jihatdan odatiy obrazga aylanmagan. o'quvchi tuzilishi jihatdan murakkab va tanish bo'lmagan so'zlarni bo'g'inlab o'qiydi.



S) Sintetik o'qish bosqichi: Ko'ruv idroki va so'z ma'nosini tushunish orasida uzilish bo'lmaganligi sababli o'qish jarayoni qiyinchilik tug'dirmaydi. Asosiy e'tibor ko'ruv obrazini idrok etishga emas, matn mazmunini o'zlashtirishga qaratiladi. O'qish jarayonini keyingi takomillashuvi ravon va ifodalilikni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Logografik o'qish davrimng qay sur'atda va ko'rinishda kechishi o'qishga o'rgatishni boshlash vaqti va o'qitish metodikasiga bog'liq. Bu davrda so'z bir butun obraz ko'rinishida eslab qolish, mazkur obrazni predmet yoki rasm bilan to'g'ridan to'g'ri va global taqqoslash kuzatiladi. Bu bosqichda o'quvchi ilk bor harf deb ataluvchi belgilar «zanjiri» ma'lum mazmunga ega ekanligini, bosqich bilan ajratilgan har bir zanjir qismi so'z deb atalishini tushunishadi. o'qishni o'rganish qanchalik erta boshlangan bo'lsa, mazkur bosqich shuncha uzoq muddat hamda keng qamrovga ega bo'ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR ROYXATI

Maxsus adabiyotlar.

1. Amirsaidova SH. Maxsus pedagogika taraqqiyotida SHarq mutafakkirlari g'oyalarining o'rni. Ped.fan.nomz. diss. avtoref. -T.: 2006. -21 b.
2. Axmedova Z. Umumta'lim o'quvchilarida disgrafiyani bartaraf etishda logopedik ish tizimi. Ped.fan.nomz. diss. avtoref. -T.: 2009. -20 b.
3. Pulatova P.M. Maxsuc pedagogika: Oligofrenopedagogika. T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2005. - 224 b.
4. Muzaffarova X.N. Bolalarda nutq buzilishlari va ularga korreksion yondoshish usullari// J. Tafakkur ziyosi – 2020. – №1. – B. 153-155